YANGI TAHRIRDAGI O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA INSON HUQUQLARIGA OID KAFOLATLAR VA MEXANIZMLAR TAHLILI

Ashuraxunova Shahnoza Tohirjon qizi, Guliston davlat pedagogika instituti stajyor-o‘qituvchisi
e-mail: ashurovashahnoza@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonning demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo‘lida amalga oshirilgan islohotlar, inson huquqlari va erkinliklarining ta’minlanishi masalalari, konstitutsiyaviy kafolatlar, ijtimoiy davlat prinsiplari, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning insonning hayoti, erkinligi, qadr-qimmati va daxlsiz huquqlarini ta’minlashdagi o‘rni. O‘zbekiston Respublikasi BMTning “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” va boshqa xalqaro huquqiy hujjatlarga rioya qilishi, “ijtimoiy birdamlik” tamoyilining konstitutsiyaviy asosda mustahkamlanishi, shuningdek, davlatning inson huquqlarini ta’minlashdagi majburiyatlari va bu boradagi yutuqlarga doir muhim huquqiy mexanizmlarni tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: inson huquqlari, demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy adolat, ijtimoiy davlat prinsiplari, ijtimoiy birdamlik, fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari;

АНАЛИЗ ГАРАНТИЙ И МЕХАНИЗМОВ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА В НОВОЙ РЕДАКЦИИ КОНСТИТУЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Аннотация: В статье рассматриваются реформы, проводимые в Узбекистане по созданию демократического правового государства и гражданского общества, вопросы обеспечения прав и свобод человека, конституционные гарантии, принципы социального государства, защита в новой Конституции человеческой жизни, свободы, достоинства и ее роль в обеспечении неприкосновенных прав. Соблюдение Республикой Узбекистан Всеобщей декларации прав человека ООН и других международно-правовых актов, конституционное закрепление принципа «социальной солидарности», а также обязательства государства по обеспечению прав человека и важные правовые механизмы достижения этой цели являются проанализировано.

Ключевые слова: права человека, демократическое верховенство права, гражданское общество, социальная справедливость, принципы государства всеобщего благосостояния, социальная солидарность, основные права и свободы граждан;

ANALYSIS OF HUMAN RIGHTS GUARANTEES AND MECHANISMS IN THE NEW EDITION OF THE CONSTITUTION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Abstract: This article analyzes the reforms implemented in Uzbekistan to establish a democratic legal state and civil society, issues of ensuring human rights

and freedoms, constitutional guarantees, principles of a social state, the role of the new Constitution in ensuring human life, freedom, dignity and inviolable rights. The Republic of Uzbekistan's compliance with the UN "Universal Declaration of Human Rights" and other international legal instruments, the strengthening of the principle of "social solidarity" on a constitutional basis, as well as the state's obligations to ensure human rights and important legal mechanisms for achieving progress in this area.

Keywords: human rights, democratic legal state, civil society, social justice, principles of a social state, social solidarity, fundamental rights and freedoms of citizens;

Inson huquqlari va erkinliklariga rioya qilishning ta’minlanishi demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etishning muhim sharti hisoblanadi. Shunga asosan, bugungi kunda mamlakatimizda ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarning zamirida, inson huquq va erkinliklariga bo‘lgan e’tibor, insonlarning sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, inson huquqlarini eng oliy qadriyat sifatida e’tirof etish kabi g‘oyalarni bosh maqsad qilib qo‘yilgan.

Davlatimiz rahbarining 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida qayd etilganidek, mamlakatimizdagi keng ko‘lamli islohotlarning samarasini har bir inson o‘z hayotida his etishi uchun qabul qilinayotgan hujjatlar ijrosini o‘z vaqtida va samarali ta’minlash, jamiyatimizning boshqa sohalari kabi inson huquqlari muhofazasiga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni ham zamon talabidan kelib chiqib tubdan takomillashtirish bugungi kunning muhim talabidir [1]. Shuningdek, davlatimiz rahbarining 2020-yil 22-iyunda qabul qilingan “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni bu sohadagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tarmoqda. Mazkur farmon asosida milliy strategiya va uni amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” tasdiqlangan [2]. Mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish, so‘z erkinligini ta‘minlash borasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Qayd etish kerakki, bugungi kunda mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari hamda kafolatlari ta’minlangan, shu bilan bilan bir qatorda uning tashkiliy mexanizmlari ham yaratilgan. Konstitutsiyamizda fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy huquqlari, jamiyat rivojlanishining strategik yo‘nalishlari, boshqaruvning adolatli va demokratik prinsiplari, shuningdek ma’naviy qadriyatlarimiz asoslari o‘z ifodasini topgan.

Konstitutsiyaviy huquqiy kafolatlar sirasiga davlat tomonidan qabul qilingan, konstitutsiyada mustahkamlangan siyosiy, huquqiy, iqtisodiy-ijtimoiy, ma’naviy kafolatlar kiradi. Konstitutsiya har bir davlat taraqqiyotining poydevori bo‘lgan huquqiy, siyosiy va mafkuraviy hujjat – mamlakatning asosiy qonuni hisoblanadi. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi inson va fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari, mustaqil demokratik davlatimiz, erkin jamiyatimizning mustahkam huquqiy asosi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach, rivojlangan huquqiy demokratik davlatni barpo qilish va adolatli fuqorolik jamiyatni shakllantirish yo‘lini tanladi.

O‘z istiqlol va erkin rivojlanish yo‘lini tanlab olgan O‘zbekistonda qisqa davr ichida insonning huquq va erkinliklarini amalga oshirish yo‘lida diqqatga sazovor ishlar qilindi. Inson manfaatlarini ta’minlash davlatimizning eng ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. Mamlakatimizda insonning huquq va erkinliklari to‘g‘risida 100 dan ortiq qonunlar, 200 dan ortiq qonunosti aktlar qabul qilindi

Demokratik fuqorolik jamiyatni qurishni maqsad qilib qo‘ygan har qanday davlatning demokratlashuviga xos xususiyatlarni ko‘rsatuvchi shartlaridan biri-inson huquq va erkinliklarining qonunlarda to‘liq belgilanishi hamda ularning ta’minlanishi uchun shart-sharoitlarning yaratilishi bilan belgilanadi. O‘zbekistonda huquqiy demokratik davlatni qurishdan asosiy maqsad – ushbu davlatda yashovchi har bir fuqoroning huquq va erkinliklarini to‘la ta’minlashdan iboratdir.

Shu sababli ham yangi O‘zbekiston sharoitida yangi tahrirdagi Konstitusiyaning muhim jihatlari inson, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmati, daxlsiz huquqlari va manfaatlarini ta’minlash, erkin va adolatli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda demokratik huquqiy davlat qurish bilan bog‘liq o'zgarishlar bilan muhim ahamiyatga ega.

Binobarin, Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda davlat faoliyati qonun ustuvorligi asosida amalga oshirilishini ta’minlash uchun Konstitusiyaning oliy yuridik kuchga egaligi hamda uning to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qilishi belgilanib qo‘yildi hamda inson huquq va erkinliklari xalqaro huquq va Konstitusiya normalariga muvofiq kafolatlandi. Bu borada ayniqsa, yangi tahrirdagi Konstitusiyamizda ijtimoiy davlat prinsiplariga oid normalarning yanada mustahkamlanishi, xususan, sifatli ta’lim va tibbiy xizmat ko‘rsatish, ijtimoiy ehtiyojmand qatlamni qo‘llab-quvvatlash, munosib mehnat sharoiti va adolatli ish haqi tizimini yaratish, ishsizlikdan himoyalanish, uy-joyga ega bo‘lishga qaratilgan qoidalar bilan yanada takomillashtirilishi bilan bog‘liqdir. Shu bilan birga, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish davlatning konstitusiyaviy majburiyati sifatida belgilanishi, erkin bozor mexanizmlarini joriy qilish, sog‘lom raqobat va xususiy mulk daxlsizligini ta’minlash, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq yangi qoidalar ham yangi tahrirdagi Asosiy qonunimizda mustahkamlab qo‘yildi. Yangi tahrirdagi Konstitusiyada barchaning – bir tomondan davlat va uning organlari tizimi, ikkinchi tomondan inson, fuqaro va jamiyatning huquq va majburiyatlari aniq va lo‘nda qilib, hamma uchun tushunarli tarzda bayon etilganligi O‘zbekistonning yanada barqaror bo‘lishiga va har qanday tahdidlarga qarshi ishonchli qalqon bo‘la olish qobiliyatini mustahkamlashga asos bo‘ladi. [3]

Aynan yuqorida keltirilgan asoslarni inobatga olgan holda Konstitutsiyamizda fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy huquqlari, jamiyat rivojlanishining strategik yo‘nalishlari, boshqaruvning adolatli va demokratik prinsiplari, shuningdek ma’naviy qadriyatlarimiz asoslari kafolatlab qo‘yildi.

Xususan, Konstitutsiyamizning 2-moddasida qomusimizning eng muhim xususiyatlaridan biri o‘z ifodasini topgan. Unda fuqarolar manfaatlarining ustunligi qonuniy ravishda mustahkamlangan va kafolatlangan. Istiqlol sharofati bilan Konstitutsiyamiz qabul qilingach har bir inson, uning hayoti, qadr-qimmati, sha’ni va erkinliklari muqaddas deb e’lon qilindi va davlat uni himoyasiga olgan holda Konstitutsiyamizda kafolatlab qo‘ydi.

Shuningdek, Konstitutsiyamizda inson huquq va erkinliklarini himoya qilish xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsiplariga asoslanilishi belgilab qo‘yilgan bo‘lib, 19-moddada o‘z ifodasini topgan. Konstitutsiyamizga kiritilgan ushbu moddaga asosan Respublikamiz Konstitutsiyasi inson huquq va erkinliklari borasida BMTining 1948-yilda qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”da ifodasini topgan ma’lum normalarni implementatsiya qildi. Aynan shu jabhada O‘zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatda 1993-yili BMTining ikkinchi Umumjahon konfrensiyasida tasdiqlangan “Inson huquqi va erkinliklarining universalligi” talablariga qat’iy rioya qilib kelmoqda. Bundan tashqari davlatimiz Konstitutsiyasida universal maqomdagi hujjatlardan tashqari inson huquqlarini ta’minlash va himoyalashning mintaqaviy tizimlari faol shakllantirilgan. Hozirgi vaqtga kelib jahonda 300 dan ziyod inson va fuqarolar

huquqi sohasidagi xalqaro-huquqiy hujjatlar mavjud bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi shundan inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi 80 dan ortiq xalqaro-huquqiy hujjatlarga imzo chekkan.

Jahon tajribasidan ma’lumki, insoning asosiy huquq va erkinliklarini qat’iy himoya qilmasdan turib, jamiyatni demokratlashtirish mumkin emas.

Shundan kelib chiqqan holda, asosiy qonunimizning 13-moddasiga asosan “O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanishi belgilab qo‘yildi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi”. Shu sababli ham mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar markazida birinchi o‘rinda – inson, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari nazarda tutilganligini ko‘rish mumkin.

Yangi tahrirdagi Konstitusiyamizning 14-moddasiga ko‘ra, “Davlat o‘z faoliyatini inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshiradi”, deb belgilab qo‘yildi. Bu bilan Konstitusiyamizda ilk marotaba “ijtimoiy birdamlik” tushunchasi belgilandi. Ijtimoiy birdamlik – ijtimoiy davlatning muhim belgisi sifatida jamiyatni birlashtiradigan va mustahkamlaydigan, insonlarni umumiy maqsad yo‘lida safarbar qiluvchi, insonlar o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlikni ta’minlashga qaratilgan munosabatlar, jamiyatni birgalikda rivojlantirish prinsipidir [4].

Mazkur prinsip jamiyat hayotida tinchlik, millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik, do‘stlik va hamjihatlik tuyg‘usini mustahkamlashga, umumxalq manfaatlarini yuzaga chiqarishga, pirovardida odamlar o‘rtasida ijtimoiy birdamlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu prinsip fuqarolar o‘rtasida o‘zaro hurmat, ishonch tuyg‘usini uyg‘otib, inson – jamiyat – davlat manfaatlari yo‘lida belgilangan vazifalarni bajarishda yaqindan hamkorlikni ta’minlaydi.

Inson va fuqarolarning huquqlari kafolatlari ichida fuqarolarning teng huquqliligi tamoyili alohida o‘rin tutadi. Konstitutsiyamizning 19-moddasiga muvofiq, “O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar”.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yilning 20-iyuni kuni Konstitusiyaviy komissiya bilan uchrashuvda ta’kidlaganidek: “Insonning qadr-qimmati, asosiy huquq va erkinliklari daxlsiz, ajralmasdir, ular har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘ladi”. Huquqiy demokratik davlatda insonning qadr-qimmati, asosiy huquq va erkinliklarining daxlsizligi, ajralmasligini belgilash bilan bir qatorda, ularni har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishli ekanligining tan olinishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni shu maqsadda yangi tahrirdagi Konstitusiyamiz **19-moddasida** inson huquq va erkinliklari har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘ladi, degan muhim qoida belgilandi. [5]

Ushbu qoida bilan insonning asosiy, tabiiy va ajralmas huquqlarini ta’minlash davlat va jamiyatning eng asosiy vazifasi sifatida Konstitusiya darajasida mustahkamlab qo‘yildi. Mazkur huquqlarga yashash huquqi, erkinlikka bo‘lgan huquq, shaxsiy va uy-joy daxlsizligi, boshpana huquqi, mulk huquqi, sud himoyasiga bo‘lgan huquq, so‘z va e‘tiqod erkinligi huquqi, erkin harakatlanish, yashash joyini tanlash, fuqarolikka ega bo‘lish, mehnat qilish huquqi, bilim olish huquqi, tibbiy huquq va boshqa shu kabilar kiradi.

Insonning huquq va erkinliklari har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘lishi O‘zbekiston a’zo bo‘lgan inson huquqlariga oid 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarda belgilangan. Ular orasida umume’tirof etilgan inson huquqlari bo‘yicha

BMTning 7 ta asosiy shartnomasi va ularga qo‘shimcha protokollar, YuNESKO, Xalqaro mehnat tashkilotining xalqaro konvensiyalari, xalqaro gumanitar huquq konvensiyalari, YXHTning “Insoniylik mezonlari” hujjatlari, shuningdek, Islom hamkorlik tashkiloti, MDH kabi mintaqaviy tashkilotlarning hujjatlari milliy qonunchilikni yanada takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi

Jahon tajrbasiga nazar tashlaydigan bo‘lsak insonning huquq va erkinliklari har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘ladi degan norma Ispaniya, Italiya, Sloveniya, Chexiya konstitusiyalarida belgilangan.

Inson huquqlari har bir insonga tegishli bo‘lgan, uning yashash joyi, millati, jinsi, etnik kelib chiqishi, tanasining rangi, dini, tili va boshqa belgilaridan qat’iy nazar, ajralmas, o‘zaro bog‘liq huquqlar va erkinliklardir. Inson huquqlari qadr-qimmat, adolat, tenglik, hurmat va mustaqillik kabi umumiy qadriyatlarga asos-lanadi. Ushbu qadriyatlar konstitusiyalar, qonunlar va xalqaro shartnomalar bilan himoya qilinadi. Yangi tahrirdagi Konstitusiyamiz loyihasining 20-moddasida ilk bor “Insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi”, degan to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llaniladigan muhim norma mustahkamlab qo‘yildi [6].

Insonning asosiy huquq va erkinliklarining bevosita amal qilishi deganda, shaxsning Konstitusiyaga bevosita asoslanib, barcha qonuniy vositalardan foydalangan holda ularni himoya qilish imkoniyati tushuniladi. Mazkur norma, bir tomondan, shaxsning huquqiy maqomini mustahkamlash, kengaytirish va rivojlantirishni va ikkinchidan, shaxsning huquqiy himoyasi mexanizmini takomillashtirishni ta’minlaydi.

Inson huquqlarining bevosita amal qilishi prinsipining umumqabul qilingan ta’rifi bo‘lmasa-da, asosan inson huquqlarining amal qilishi alohida qonun, qoida qabul qilishga yoki maxsus organ tuzishga bog‘liq bo‘lmasligini nazarda tutadi. Shundan kelib chiqib, ushbu prinsip konstitusiyaviy norma sifatida belgilanishi quyidagi imkoniyatlarni yaratadi: birinchidan, fuqarolarimiz uchun o‘z huquqlarini bevosita himoya qilish imkoniyatini beradi; ikkinchidan, sudlar inson huquqlari himoyasiga oid muayyan ishlarni ko‘rayotganda Konstitusiyadagi inson huquqlariga oid normalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llash imkoniyatini yaratadi; uchinchidan, barcha darajadagi davlat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va ularning mansabdor shaxslari o‘z faoliyatida inson huqulariga bevosita amal qilish qoidasiga rioya qilishi shartligini yana bir bor eslatib turadi.

Yangi tahrirdagi Konstitusiyamiz loyihasining **20-moddasida** “Insonning huquq va erkinliklari qonunlarning, davlat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi”, [7] degan norma mustahkamlanmoqda.

Insonning huquq va erkinliklari qonunlar, davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatining mazmunini belgilashi haqida konstitusiyaviy normaning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

birinchidan, insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qilishi deganda, avvalo, insonning huquqlari qonunchilik hujjatlarida to‘liq belgilanishi, shu asosda huquqni qo‘llovchi vakolatli organlar va mansabdor shaxslar o‘z faoliyatini tashkil etishi hamda sudlar odil sudlovni amalga oshirishda qonun talablaridan kelib chiqqan holda inson huquqlarini himoya qilishi nazarda tutiladi;

ikkinchidan, insonning har bir konstitusiyaviy huquq va erkinliklari davlat va fuqaro o'rtasidagi huquqiy munosabat mazmunini belgilab beradi. Ya’ni ushbu normalarni amalda ta’minlash, muhofaza etish davlat organlariga majburiyat sifatida yuklanadi. Shu asnoda fuqarolarning huquq va erkinliklari kengayib, ularning manfaatlari to‘laroq ifoda etilishiga erishiladi. Mazkur norma fuqarolarning huquq va erkinliklarini oliy darajada kafolatlab, Konstitusiyaning insonparvar tabiatini kuchaytiradi. Shuningdek, davlat organlari va mansabdor shaxslarning faqat va faqat

fuqarolarning manfaatlarini ko‘zlab faoliyat ko'rsatishining ishonchli huquqiy asosi bo‘lib, har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti, malakali tibbiy xizmat ko‘rsatish, sifatli ta’lim, ijtimoiy himoya tizimi, sog‘lom ekologik muhit yaratib berishga xizmat qiladi.

Yillar o‘tgan sayin Konstitutsiyamizning mukammalligi, hayotiyligi, uning kelajakning ham talablariga javob bera olishi isbotlanmoqda. Bu esa istiqlolning ilk yillarida Asosiy qonunni yaratish yo‘lida amalga oshirilgan ulkan va mashaqqatli mehnat samarasidir. O‘tgan davr ichida nimaga erishgan bo‘lsak Konstitutsiya asosida amalga oshirildi, uning normalariga amal qilgan holda erishdik. Konstitutsiyaning 22-moddasida davlat o‘z hududida ham, uning tashqarisida ham o‘z fuqarolarini huquqiy himoya qilishi va ularga homiylik ko‘rsatishi, 23-moddasida respublika hududida chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalariga muvofiq himoyalanishi kafolatlab qo‘yildi.

Har bir davlat o‘z fuqarosi qayerda bo‘lishidan qat’iy nazar, uni himoya qilishga majburdir. Shu nuqtai nazardan, hech bir davlat o‘z fuqarosini hududidan majburan chiqarib yuborilishiga yoki boshqa davlatga berishga yo‘l qo‘ymaydi. Aynan shu maqsadda yangi tahrirdagi Konstitusiyamiz loyihasining 23-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi O‘zbekistondan tashqariga majburiy chiqarib yuborilishi yoki boshqa davlatga berib yuborilishi mumkin emas”, degan insonparvar norma belgilandi.

Davlat o‘z fuqarolarini jazo yoki siyosiy chora sifatida o‘z hududidan majburan chiqarib yuborishi mumkin emasligi Inson huquqlari bo‘yicha Evropa konvensiyasining 4-protokoli hamda Inson huquqlari bo‘yicha Arab xartiyasida ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilgan

O‘z fuqarosini boshqa davlatga bermaslik (non extradition) deganda, xalqaro huquqda davlat o‘z fuqarosini sodir etgan jinoyati uchun boshqa davlatga ushlab bermasligi tushuniladi.

Konstitutsiyamizda insonning shaxsiy huquq va erkinliklari ham o‘z ifodasini topgan bo‘lib, VII bobda mustahkamlab qo‘yilgan. Xususan 25-moddada insonning ajralmas huquqi hisoblangan yashash huquqi kafolatlangan bo‘lib, inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyat ekanligi belgilab qo‘yilgan. Chunki, inson va fuqaroning asosiy huquq va erkinliklari tizimida yashash huquqi, nafaqat huquqning har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishliligi va ajralmas ekanligi, balki insonning Konstitutsiyada berilgan va kafolatlangan hamda qonunlar va boshqa huquqiy hujjatlar tomonidan himoya qilinadigan barcha mavjud huquq va erkinliklarga ega bo‘lishning dastlabki sharti va garovi hisoblanadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 28-moddasida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi, sudlanuvchining huquqiy himoyasini kuchaytirishga qaratilgan normalar belgilab qo‘yildi, ya’ni ushbu belgilangan normaga muvofiq, “aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo‘lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerak”. Ushbu belgilangan normaga muvofiq, shaxsni aybli ekanligiga oid har qanday shubhalar, shuningdek ayblash uchun etarli bo‘lmagan ma’lumotlar asosida shaxsni javobgarlikka tortish mumkin emas. Bunday holatda isbotlanmagan ayb aybsizlikka teng deb hisoblanadi.

Shuningdek, ushbu moddaga binoan endilikda hech bir fuqaro jinoyatchiga qarindoshligi tufayli ma’lum bir cheklovlarga uchramaydi. Shu vaqatgacha bilamizki, agar kimningdur qarindoshi sudlangan bo‘lsa ishga qabul qilmaslik, yuqori lavozimga ko‘tarila olmaslik holatlari kuzatilar edi, endilikda esa belgilangan ushbu normaga muvofiq bunday cheklovlar bartaraf qilindi.

Bunday normalar Ozarbayjon, Chexiya, Gruziya, Xorvatiya, Yaponiya konstitutsiyalarida mavjud.

Shaxs o‘ziga doir ma‘lumotlarni himoya qilishi uning shaxsiy huquqlaridan biri hisoblanadi va mazkur huquq davlat tomonidan ta’minlanishi kerak. Shu munosabat bilan yangi tahrirdagi Konstitusiyamizning 31-moddasida “Har kim o‘z shaxsiga doir ma’lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek noto‘g‘ri ma’lumotlarning tuzatilishini, o‘zi to‘g‘risida qonunga xilof yo‘l bilan to‘plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo‘lmay qolgan ma’lumotlarning yo‘q qilinishini talab qilish huquqiga ega”, degan qat’iy norma belgilab qo‘yildi.

Inson qadri ulug‘lanayotgan Yangi O‘zbekistonda shaxs bilan bog‘liq bo‘lgan ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha chinakam yangi davr boshlandi. Jumladan, 2019 yilda qabul qilingan “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi qonun buning yorqin tasdig‘idir. Unga ko‘ra, shaxsga doir ma’lumotlardan foydalanishga ruxsat olgan shaxslar ushbu ma’lumot egasining roziligisiz shaxsga doir ma’lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor etmasligi va tarqatmasligi shart.

Shaxsga doir ma’lumotlar sifatida insonning bevosita o‘ziga taalluqli bo‘lgan elektron yoki qog‘ozda qayd etilgan ma’lumot tushuniladi. Masalan, shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan yili va joyi, kasbi, fuqaroligi, ma‘lumoti, oilaviy ahvoli, ish joyi, yashash manzili, oila a‘zolari, salomatligi, ijtimoiy ahvoli, partiyaviyligi, harbiy xizmatga aloqadorligi kabi ma’lumotlar ular sirasiga kiradi.

Yangi tahrirdagi Konstitusiyamizning 28-moddasida “Shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo‘lishi mumkin emas”, degan insonparvar va adolatli norma mustahkamlab qo‘yildi. Uning mohiyati nimadan iborat, degan savol tug‘iladi.

Sudlanganlik shaxsga sud hukmi bilan jazo tayinlanganidan keyin unga nisbatan muayyan oqibatlarni keltirib chiqaradi. Masalan, sudlanganlik davlat boshqaruvi, huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ishga kirish yoki ularda tegishli lavozimlarni egallashda, harbiy xizmatni o‘tashda, saylanish huquqidan foydalanishda yoxud muayyan faoliyat bilan shug‘ullanishda qator taqiqlarni yuzaga keltiradi. Ammo shaxsning sudlanganligi bilan bog‘liq turli cheklovlar uning o‘zi bilan cheklanib, boshqa shaxslarning huquqlariga ta‘sir qilmasligi va hech bir holatda inson o‘zining yaqinlari yo‘l qo‘ygan xatolar uchun javob bermasligi kerak! Qolaversa, mehnat qonunchiligiga ko‘ra, shaxslarni yaqin qarindoshlari sudlanganligi munosabati bilan ishga qabul qilmaslik holati ishga qabul qilishni g‘ayriqonuniy ravishda rad etish, deb hisoblanadi.

Davlat xizmati samaradorligini oshirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri davlat idoralariga ishga qabul qilishning ochiq-oshkora tizimini joriy etish hisoblanadi. Shu maqsadda yangi tahrirdagi Konstitusiyamizning 37-moddasida “O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa egadirlar”, degan qoida belgilandi. Davlat fuqarolik xizmatiga kirishda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining teng huquqliligi prinsipi 2022-yilda qabul qilingan “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi Qonunda ham mustahkamlangan.

Mamlakatimizda davlat organlarida davlat fuqarolik xizmatiga kirishda barcha fuqarolarning teng imkoniyatlardan foydalanishini hamda davlat fuqarolik xizmatida professional sifatlar va alohida xizmatlar asosida ko‘tarilib borishni ta'minlaydigan nomzodlarni saralab olishning shaffof mexanizmlari amal qilmoqda.

Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 25-moddasida “har bir fuqaro hech bir kamsitishsiz va asoslanmagan cheklashlarsiz o'z mamlakatida umumiy tenglik shartlarida davlat xizmatiga kirish” huquqiga egaligi belgilangan.

Yangi tahrirdagi Konstitusiyamizning 42-moddasida mehnat huquqi va uni amalga oshirishga oid quyidagi normalar belgilandi: Ushbu masala bo‘yicha 2006-

yilda Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan Mehnat xavfsizligi va gigiyenasiga ko‘maklashish asoslari to‘g‘risidagi Konvensiya qabul qilingan bo‘lib, O‘zbekiston 2021-yilda ushbu hujjatni ratifikasiya qilgan; O‘xshash normalar Ispaniya, Italiya, Portugaliya, Chexiya, Ruminiya, Xitoy, Turkiya kabi davlatlar konstitusiyalarida belgilangan.

Shu munosabat bilan yangi tahrirdagi Konstitusiyamizning 42-moddasida “Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta’minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanadi”, degan yangi norma belgilab qo‘yildi. Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasida har bir ishlovchi shaxs munosib yashashini ta’minlaydigan adolatli va qoniqarli daromad olish huquqiga ega ekanligi mustahkamlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev 2022-yil 20-iyunda Konstitusiyaviy komissiya a’zolari bilan uchrashuvda inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha amaldagi tizimning samarasini oshirish maqsadida Konstitusiyamizda bolalar mehnatiga yo‘l qo‘ymaslikka alohida e’tibor qaratgan edi. O‘zbekiston Respublikasi 2008-yilda Xalqaro mehnat tashkilotining Bolalar mehnatining og‘ir shakllarini taqiqlash va yo‘q qilishga doir shoshilinch choralar to‘g‘risidagi Konvensiyani ratifikasiya qilgan.

Yangi tahrirdagi Konstitusiyamizning 44-moddasida “Bolalar mehnatining bolaning sog‘lig‘iga, xavfsizligiga, axloqiga, aqliy va jismoniy rivojlanishiga xavf soluvchi, shu jumladan uning ta’lim olishiga to‘sqinlik qiluvchi har qanday shakllari taqiqlanadi”, degan qat’iy norma mustahkamlab qo‘yildi.

Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasining 25-moddasida “Har bir inson tibbiy xizmat va zarur ijtimoiy xizmatga ega bo‘lishga hamda ishsizlik, kasallik, nogironlik, bevalik, qarilik yoki unga bog‘liq bo‘lmagan sharoitlarga ko‘ra tirikchilik uchun mablag‘ bo'lmay qolgan boshqa hollarda ta’minlanish huquqiga ega”, deb belgilangan. Bu huquqni ta’minlash – ijtimoiy davlatning asosiy vazifalaridan biridir.

Shundan kelib chiqib, ijtimoiy adolat tamoyiliga amal qilish maqsadida yangi tahrirdagi Konstitusiyamiz loyihasining 46-moddasida “Qonunda belgilangan pensiyalar, nafaqalar va boshqa turdagi ijtimoiy yordamning miqdorlari rasman belgilangan eng kam iste’mol xarajatlaridan oz bo‘lishi mumkin emas”, degan norma mustahkamlanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoev 2022-yil 20-iyundagi Konstitusiyaviy komissiya a’zolari bilan uchrashuvda “Konstitusiyamizda fuqarolarimizning uy-joyga bo‘lgan huquqlarini himoya qilish, muhtoj toifalarni uy-joy bilan ta’minlash bo‘yicha davlatning majburiyatlarini mustahkamlash zarur”, deb ta’kidlagan edi. Shu bois yangi tahrirdagi Konstitusiyamizning 47-moddasida “Aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarini uy-joy bilan ta’minlash tartibi qonunda belgilanadi”, degan yangi insonparvar norma mustahkamlab qo‘yildi.

Shunga o‘xshash normalar Shvetsariya, Finlandiya, Portugaliya kabi davlatlarning ham konstitutsiyalarida mavjud.

Salomatlik insonning birlamchi ehtiyoji va istagidir. Faqatgina sog‘lom xalq, barkamol millat buyuk ishlarga qodir bo‘ladi. Shu bois yangi tahrirdagi Konstitusiyamizda aholi salomatligini asrash bilan bog‘liq normalar 4 barobar ko‘paytirildi. Xususan, 48-moddada “Har kim sog‘lig‘ini saqlash va malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga ega. O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan olishga haqli”, degan mazmundagi hayotiy norma mustahkamlandi. Ushbu normaga ko‘ra ilk marotaba fuqarolarning sog‘lig‘ini saqlash huquqi Konstitusiya darajasida belgilab qo‘yildi.

Ilmiy salohiyati yuksak bo‘lgan yoshlar mamlakatimiz poydevorini mustahkamlaydi. Shu boisdan ta’limga bo‘lgan e’tibor yanada kuchaytitirilmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda ham aynan shu jihatlarni hisobga olgan holda ta’lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan bir qancha normalar belgilab qo‘yildi. Buni biz Knstitutsiyamizga kafolatlangan **50, 51, 52-moddalar** misolida ko‘rishimiz mumkin.

Aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalariga yolg‘iz keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, muomalaga layoqatsiz va muomala layoqati cheklangan fuqarolar, ijtimoiy ahamiyatga molik kasalliklarga chalingan shaxslar hamda etim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar kiradi. Shu bois BMTning Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi talablariga muvofiq, yangi tahrirdagi Konstitusiyamizning 57-moddasida quyidagi qo‘shimchalar kiritildi: birinchidan, nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasida ekanligi belgilab qo‘yildi.

Jamiyat va davlat hayotida xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligini, shuningdek, xotin-qizlarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta’minlash, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Shu bois yangi tahrirdagi Konstitusiyamizning 58-moddasida “Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta’minlaydi”, degan norma mustahkamlandi.

Yangi tahrirdagi konstitutsiyamizda o‘z faoliyatini asosiy maqsadi qilgan, inson huquq va erkinliklarini kafolatlashga qaratgan milliy mexanizmlarning huquqiy asoslarini kengaytirishga qaratilgan o‘zgarishlar ham o‘rin egallagan.

Inson huquqlari ustuvor hisoblangan va qadrlangan davlatda ularni himoya qilish mexanizmlari doimo takomillashtirib boriladi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ham ushbu mexanizmlar faoliyati hisobga olingan holda, **56-moddada** quyidagicha normalar belgilanib qo‘yildi; “Inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning mavjud shakllari hamda vositalarini to‘ldiradi, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga va inson huquqlarini madaniyatini yuksaltirishga ko‘maklashadi. Davlat inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar faoliyatini tashkil etish uchun shart-sharoitlar yaratadi” kabi normalar mustahkamlanib qo‘yildi

Inson huquqlarini O‘zbekiston Respublikasining sud organlari orqali himoya qilish inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish mexanizmining tarkibiy va hal qiluvchi qismidir. Chunki, sud buzilgan inson huquqlari va erkinliklarini tiklash tizimida eng muhim vosita hisoblanadi.

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham sud organlari huquqlari kengayishiga doir o‘zgartirish kiritildi.

Norma ijodkorligi sohasidan ma’lumki, qonunchilik tashabbusi huquqi bu - davlat va jamiyat irodasini qonunlarga aylantirish maqsadida vakolatli organlar va shaxslar tomonidan qonun loyihasini qabul qilish, amaldagi qonunni o‘zgartirish yoxud bekor qilish haqida taklifni parlamentga taqdim etilishi bilan bog‘liq faoliyatdir. Konstitutsiyaga muvofiq qonunchilik tashabbusi huquqiga Prezident, o‘z davlat hokimiyatining oliy vakillik organi orqali Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Qonunchilik palatasi deputatlari, Vazirlar Mahkamasi, Konstitusiyaviy sud, Oliy sud, Bosh prokuror ega. Bunda har bir sub’ekt o‘z faoliyati va vakolatlaridan kelib chiqib mazkur huquqni amalga oshirishi muhimdir.

Yangilangan Konstitutsiyamizda qonunchilik tashabbusi huquqiga ega sub’ektlar doirasi yuzasidan ham o‘zgartirish kiritildi. Endilikda yangi tahrirdagi

Konstitutsiyamizning 98-moddasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyaviy sudi, Oliy sudi va Bosh prokurori ham o‘z vakolatlariga kiradigan masalalar yuzasidan qonunchilik tashabbusi huquqiga egaligi belgilab qo‘yildi. Konstitusiyaviy sud, Oliy sud va Bosh prokuror faqatgina o‘z vakolatlariga oid masalalar yuzasidan qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirishi mustahkamlab qo‘yildi. Qonunchilik palatasi faoliyatida sud hokimiyati organlari va Bosh prokuror tomonidan kiritilgan qonun loyihalari miqdori ko‘p emas. Bu orqali yuqoridagi sub’ektlar faqatgina o‘z faoliyati doirasi bo‘yicha qonun loyihalarini puxta ishlangan holda taqdim etishi yo‘lga qo‘yildi.

Shuningdek, Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizga kiritilgan yangilikka ko‘ra qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida kiritish instituti tashkil etildi. Xususan, 98-moddada qonunchilik takliflarini qonunchilik tashabbusi tartibida kiritishi mumkin bo‘lgan sub’ektlar belgilab qo‘yildi. Ular quyidagilar:

- O‘zbekiston Respublikasining saylov huquqiga ega bo‘lgan, yuz mimg nafardan kam bo‘lmagan fuqarolari,
- O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisining Senati,
- O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakili(ombudsman),
- O‘zbekiston Respublikasi saylov komissiyasi.

Fuqarolarga va Oliy Majlisning Inson huquqlari bo‘yicha vakili (ombudsman)ga bunday huquqning berilishi qonun ijodkorligida fuqarolarning ishtiroki kengayishiga hamda inson huquqlarini ta’minlash, himoya qilishga xizmat qiladi. Masalan, 2022-yil yanvar-avgust oylarida fuqarolarning murojaatlaridan kelib chiqib, deputatlar tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqi asosida 6 ta qonun loyihasi Qonunchilik palatasiga kiritilgan. 2021-yilda Inson huquqlari bo‘yicha vakil (ombudsman) tomonidan Oliy Majlisga va Vazirlar Mahkamasiga qonun loyihalari yuzasidan 93 ta taklif yuborilgan.

Qonunchilik takliflarini kiritish institutining Konstitusiyada belgilanishi xalqimiz, fuqarolarimiz xohish-irodasini qonunlar shaklida ifodalashga, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, inson huquqlari sohasidagi muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Fikrimizni asoslashimiz jarayonida dastavval advokatura institutining huquqiy asoslariga kiritilgan o‘zgarishlarga to‘xtalib o‘tamiz. Inson huquqlarini himoya qilishda advokatura institutining roli katta hisoblanadi. Advokatura instituti vakolatlarining kengayib, faoliyatining rivojlanib borishi inson manfaatlari, huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning nosudlov mexanizmi yanada takomillashib borayotganidan va kuchli fuqarolik jamiyatining poydevori mustahkamlanib borayotganidan darak beradi. Shu boisdan ham yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida advokaturaga oid alohida bob kiritildi.

Ushbu bobdagi 141-moddada “Jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko‘rsatish uchun advokatura faoliyat ko‘rsatadi. Advokatura faoliyati qonuniylik, mustaqillik va o‘zini o‘zi boshqarish prinsiplariga asoslanadi”, degan yangi norma mustahkamlab qo‘yildi.

Konstitutsiyamizga kiritilgan ushbu normada advokatura faoliyatining asosiy prinsiplari belgilab qo‘yildi. Xususan, yagona kasbiy birlashmasi sifatida advokaturaga oid barcha masalalar bevosita advokatlar tomonidan hal etilishini nazarda tutuvchi – o‘zini o‘zi boshqarish prinsipi belgilab qo‘yildi. Bu esa, advokatlar kasbiy mustaqilligining asosiy kafolati hisoblanadi. Yana bir kiritilgan yangilikka ko‘ra o‘zini o‘zi boshqarish prinsipini advokaturaning mustaqilligisiz tasavvur etib bo‘lmaydi, ular bir-birini taqozo etadi va to‘ldiradi. Shu bois, barcha advokatlarning orzu-umidi bo‘lmish mustaqillik prinsipi konstitusiyaviy darajada

belgilandi. Shuningdek, Konstitusiyada advokatlik faoliyatida qonuniylik prinsipi ham nazarda tutilgan. Bu esa, tom ma’noda, davlat organlarining advokaturaning ichki ishlariga aralashishining oldini olishga xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishni ta’minlashga doir Konstitutsiyamizga kiritilgan keng miqyosdagi o‘zgartirishlar birinchi navbatda shaxs manfaatining davlat manfaatidan ustun etib belgilanganini, inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari eng oliy qadriyat sifatida belgilab qo‘yilganligning kafolatidir. Mazkur qoidalarning Konstitutsiyamizda belgilanishi inson huquq va erkinliklarini himoya qilish tizimini yanada mustahkamlaydi hamda inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlarning rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 30-aprel 2023-yil. http://lex.uz//uz/docs/-6445145

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-maydagi “Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida” 67-son farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi URL: https://lex.uz/docs/-5280079

4. Saidov A. X. Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquq. Darslik. –Toshkent.

5. Mo‘minov A. R., Tillabayev M. A., Saidov A.X. Inson huquqlari, darslik 2-nashr. –Toshkent: Adolat, 2013. – B. 50.

6. Ахмедшаева М. А. Ҳуқуқ ривожининг замонавий тенденциялари. – Тошкент: ТДЮУ нашриёти, 2022 йил, – Б. 12.

7. Рашидова С. Ш. Ўзбекистонда инсон ҳуқуқ ва эркинликлари таъминланиши каби давлат сиёсатининг устувор жиҳатлари – давлат органлари фаолиятидаги инсон ҳуқуқлари маданиятини шакллантириш асосидирю Инсон ҳуқуқлари маданиятини шакллантириш масалалари мавзусидаги Республика илмий-назарий конференция материаллари. – Тошкент: ТДЮИ, 2011. – Б. 3-4.

8. Saidov A. X. Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazining asosiy vazifalari va faoliyat prinsiplari. Demokratlashtirish va inson huquqlari. – Toshkent: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi, 2006. № 4. – B.2.